

YOSHLAR
OVOZI

BIZ – KELAJAK
BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

#27 (16681)
2025–yil 9–iyul,
chorshanba



Foto: Rustam NAZARMAT

Har yili 30-iyunda yurtimizda keng nishonlanadigan Yoshlar kuni mam-lakatimizda yosh avlodga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor va g'amxo'rlik tim-soliga aylandi. Bu bayram nafaqat shukuhli tadbirlar, balki yoshlar hayoti-ga bevosita ta'sir qiluvchi muhim yangiliklar, dastur va tashabbuslarga boyli-gi bilan ahamiyatlidir. An'anaga ko'ra, shu kunda jamiyatimizning eng faol, tashabbuskor va iqtidorli vakillari davlat mukofotlari bilan taqdirlanadi.

Bu yil bayram o'zgacha ruhda o'tdi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning yoshlar bilan bevosita va ochiq muloqot tarzidagi uchrashuvi, yoshlarga samimiy munosabati, ularning fikr va takliflariga quloq tutishi, muloqot da-vomida ilgari surilgan muhim tashabbuslar yosh avlodga chuqur taassurot qoldirdi.

HAR BIR YOSH –
BIR
IMKON,
UMID,
~ kelajak

»» 2-bet

**TA'LIMDA TENG
IMKONiyATLAR**

Ilgari surilgan tashabbuslarning birinchisi – har yili eng salohiyatli 3 ming nafar o'quvchi, jumladan, ehti-vojmand oilalardan chiqqan 300 na-far yosh Harvard, Yel, Kolumbiya ka-bi "Pechak ligasi" oliy bilim dargohlari-ga tayyorlanadi. Bunday yondashuv xalqaro miqyosdagi raqobatbardosh mutaxassislarni yetishtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, dunyoning Top-300 oliy o'quv yurtiga kirgan yoshlarga 20 ming dollargacha imtiyozli ta'lim kreditlari ajratilishi nazarda tutilgan.

Davlatimiz rahbari uchrashuvda zamonaviy yoshlarni tarbiyalash, ular-ni intellektual salohiyatini yuksal-tirish, jamiyat va davlat hayotida faol ishtirokini ta'minlash, eng asosiysi, er-tangi kun uchun mas'uliyatni his qila-digan, irodali, bilimli va ilg'or fikrlay-digan avlodni shakllantirish borasida-gi tashabbuslarni ilgari surdi.

**BIR MILLION
SUN'iy INTELLEKT
YETAKCHILARI**

Yana bir muhim tashabbus sun'iy intellekt sohasini rivojlantirishga qa-ratilgan. 100 ta loyiha doirasida sun'iy intellektning milliy modelini ishlab chi-qish va "Bir million sun'iy intellekt ye-takchilari" dasturi orqali 100 ming nafar yoshni "AI-Study" platformasi asosida o'qitish rejalashtirilgan. Massachusets texnologiya instituti ta'lim dasturi aso-sida darsliklarni yangilash, viloyatlarda 100 nafardan informatika o'qituvchila-rini qayta tayyorlash belgilangan.

XALQARO HAMKORLIK

MDH

YOSHLAR ISHLARI
BO'YICHA
KENGASHINING
NAVBATDAGI
YIG'ILISHI BO'LIB
O'TDI

»» 2-bet



2025–yil 2–3-iyul kunlari Ozarbayjonning Ga-bala shahrida Mustaqil Davlatlar Ham-do'stligiga (MDH) a'zo mamlakatlar Yoshlar ishlari bo'yicha kengashining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Tad-bir 2025-yilda Gabalaga "MDH yoshlar poytaxti" maqomi berilishi munosaba-ti bilan tashkil etilgan tantanali maro-sim doirasida o'tkazildi.

"VAQT KAPSULASI"
YOSHLARDAN 2075–YILGA XAT

»» 2-bet



Zamonaviy dunyoda har bir davlat o'z kelajagini yoshlar salohiya-ti asosida barpo etadi. O'zbekistonda bu yondashuv davlat siyo-satining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Yoshlarni qo'llab-quvvat-lash, ularning fikrini eshitish, orzu-intilishlarini rag'batlantirish va ularni global tafakkurga yo'naltirish maqsadida qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Shu yo'nalishda Yoshlar ishlari agentligi tomonidan amal-ga oshirilgan "Vaqt kapsulasi" tashabbusi alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

QOBILIYATDAN
daromad
KELADI

»» 4-bet



"Hammasi maktab paytida qizi-qishim orqali daromad topganimdan keyin boshlandi", deydi qahramoni-miz Shahriyor Jalgashev. U 22 yoshda, Janubiy Koreyaning Gachon universi-teti uchinchi bosqich talabasi. Uning ta'lim olishi, tajribalari va koreys ta'lim tizimi haqidagi fikrlari boshqa-larnikidan biroz farq qiladi.

Shahriyor o'qishga kirish jarayoni-da amaliy chizmachilik imtihonlariga tayyorlangan. Yoshligidan rasm va chiz-machilikka qiziqishi borligi uni arxitek-tura yo'nalishini tanlashga undadi.



aslida
ISSIQROQMI?

Yozning jazirama kunlari kundalik hayot bilan bir-ga ish sharoitlarini ham og'irlashtirmoqda. Aholi orasida ya-na o'sha odatiy savol: "Mobil ilovalar 45-48 daraja ko'rsatayotgan bir vaqt-da rasmiy manbalar nima uchun 42-43 darajadan yuqoriga chiqmaydi?" Go'yoki havo harorati ataylab pasay-tirib ko'rsatilyapti.

Shubhalarning fonida yana bir muammo bor. Ya'ni yuqori harorat-da ishlash bilan bog'liq aniq me'yor-lar O'zbekistonda mavjud emasligi. Rivojlangan davlatlarda havo haro-rati o'rtaacha 35 darajadan oshganda ish vaqtincha to'xtatilishi yoki ishchi-larga kompensatsiya to'lanishi mum-kin bo'lsa, bizda jaziramada ishla-yotganlar o'zi qila olgan ehtiyot cho-ralar bilangina cheklanishga majbur. Holbuki, harorat shunchaki statistik raqam emas, inson hayotiga bevosita ta'sir qiluvchi xavf omilidir.

Xo'sh, rasmiy harorat ko'rsat-kichlari qanchalik ishonchli? Issiqda ishlashga oid qanday xalqaro me'yor-lar bor? O'zbekistonda bu boradagi ehtiyojlar va imkoniyatlar qayerda to'qnashmoqda?

Sog'lom
AVLOD
SOG'LOM
JAMIYATNI
QURADI

»» 3-bet



30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan turli sohalar-da yuqori nati-jalarga erishayotgan, faol yoshlar dav-lat mukofotlari bilan taqdirlandi. Ular orasida Qoraqalpog'iston Respublika-si To'rtko'l tumanidagi Navoiy mahal-lasi yoshlar yetakchisi Jamshidbek Is-moilov ham bor.

Jamshidbek Ismoilov yoshlar bi-lan ishlash, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish borasidagi tashabbuslari, mahalladagi ijtimoiy faollikni oshirish-ga qo'shgan hisssasi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, uning yoshlar siyosatini joy-larda targ'ib qilishdagi sa'y-harakatlari, yangilikka intilishi va yetakchilik salohi-yati yuqori baholandi. Bu yil u "Kelajak bunyodkori" medali bilan taqdirlandi.

Jamshidbek Ismoilov yoshlarni sportga jalb etish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maq-sadida "Sport bu – hayot", "Sog' tanda – sog'lom aql", "Yoshlar sportda, g'ala-ba bizda" kabi shiorlar ostida targ'ibot tadbirlari o'tkazib kelmoqda.

FOMO:
XABARSIZLIK XAVOTIRI

»» 4-bet



Bugungi kun odami kechagidan ko'proq biladi, ko'proq eshita-di, ko'proq ko'radi, shunga qaramay, o'zini ko'proq yo'qotadi ham. Hozir-gi raqamli jamiyatga shunchalik si-ngib ketgan bir holat borki, ko'pchilik uni "shunchaki tashvishlanish", "yo-qimsiz holat", "odatiy hissiyot" sifati-da qabul qiladi. Gap FOMO haqida. Ya'ni biror muhim voqeadan, imkoni-yatdan yoki yangilikdan bexabar qolib ketish qo'ruvi.

HAR BIR YOSH – BIR IMKON, UMID, *kelajak*



XORIJIY TAJRIBA ALMASHINUVI

Yoshlar oʻrtasida kasbiy musobaqalar oʻtkaziladi, har bir yoʻnalish boʻyicha yiliga 100 nafardan yosh xorijiy stajirovkaga yuboriladi. Har bir sohaga shu maqsad uchun 10 milliard soʻmdan ajratadi. “Yoshlar biznesi” dasturi orqali 100 mingdan ortiq yosh, “Kelajakka qadam” loyihasi asosida 140 ming nafar OTM bitiruvchisi ish bilan taʼminlanadi. Shuningdek, oliy taʼlim, texnikum va kasbiy taʼlim bitiruvchilarini ish beruvchilar bilan bogʻlaydigan elektron platforma ishga tushiriladi.

MAKTAB OʻQUVCHILARI UCHUN AMALIYOT

Prezident tashabbuslarida yuqori sinf oʻquvchilari ham eʼtibordan chetda qolmaydi. Har yili “Mening kasbim” tanlovi oʻtkazilib, gʻoliblar rivojlangan mamlakatlarga kuzatuv va amaliyot uchun yuboriladi. Shu bilan birga, “Harakatda daromad” elektron tizimi orqali taʼlildagi 3 million yosh malaka talab qilmaydigan ishlar bilan band qilinadi. Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasida esa “Kelajak liderlari” dasturi asosida 100 nafar salohiyatli yosh rahbarlikka tayyorlanadi.

Maktablar oʻrtasidagi aktyorlik, musiqa va kitobxonlik tanlovlarining gʻolib jamoalari uchun gastrol safarlari tashkil qilinadi, ular uchun maxsus avtobuslar ajratiladi. Ushbu jamoalar aʼzolari madaniyat va sanʼat bilim yurtlariga imtiyozli qabul qilinadi. “Iqtidor” maktab ansambli tanlovining viloyat bosqichi gʻoliblari esa bolalar va musiqa sanʼati maktablarida bepul tahsil olish imkoniyatiga ega boʻladilar.



“KELAJAK LIDERLARI”
DASTURI ASOSIDA 100
NAFAR SALOHIYATLI
YOSH RAHBARLIKKA
TAYYORLANADI.

VATANPARVARLIK TARBIYASI

Yoshlarni vatanparvarlik va mardlik ruhida tarbiyalash maqsadida har yili “Shijoat va gʻayrat” nomli harbiy-sport musobaqalari oʻtkaziladi. “Gʻalaba bogʻi”da joylashgan “Millat fidoyilari” monumentiga yoshlar tashrifi uyushtiriladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan tashabbuslar yoshlarning salohiyatini toʻliq roʻyobga chiqarishga, ularning zamonaviy bilim va koʻnikmalar bilan qurollanishiga, jamiyatda munosib oʻrin egallashiga xizmat qilmoqda. Bu tashabbuslar asosida barcha hududlarda tizimli ishlar boshlangan boʻlib, har bir viloyatda bu qarashlar amaliyotga faol tatbiq etilmoqda. Sirdaryo viloyatida ham yoshlar bilan ishlash borasida olib borilayotgan ishlar shu yondashuvning yorqin namunasidir.

Mirqodir SADULLAYEV,
Sirdaryo viloyati Yoshlar ishlari
boshqarmasi boshligʻi

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

INTELLEKTUAL SALOHIYAT

Yoshlarning aqliy salohiyatini oshirish maqsadida “Zakovat” oʻyinlari professional liga, talabalar va maktab oʻquvchilari ligalari shaklida tashkil etilib, maktab oʻquvchilari oʻrtasida “Intellectual olimpiada” oʻtkazildi. Ushbu oʻyinlarda 400 dan ortiq jamoa ishtirok etdi va 6 mingga yaqin yosh jalb qilindi. Sportning shaxmat turi boʻyicha viloyatda “Yoshlar ishlari boshqarmasi boshligʻi kubogi” tashkil etildi.

“Bir million dasturchi” loyihasi doirasida 150 dan ortiq targʻibot tadbirlari oʻtkazilib, 27 mingga yaqin yosh roʻyxatdan oʻtdi. Bugungi kunga qadar 11 mingdan ziyod yosh dasturchilik boʻyicha sertifikatga ega boʻldi.

IT va xorijiy tillarga oʻqitish yoʻnalishida esa 2953 nafar yosh qamrab olinib, “Har bir mahallada ikki nafar dasturchi” loyihasi orqali 478 nafar yoshga C1 darajali sertifikat olishga koʻmaklashildi.

BANDLIK VA IJTIMOIY HIMOYA

Viloyat boʻylab birinchi yarim yillikda 90 marotaba mehnat yarmakalari oʻtkazilib, 2 mingga yaqin yosh ish bilan taʼminlandi. Shuningdek, “ogʻir” toifadagi yoshlar bilan ishlash tizimlashtirilib, 149 nafar rahbarlar 2421 nafar ishsiz yoshga birlashtirildi, ularning 851 nafari ishga joylashtirildi.

“Yoshlar daftari”ga kiritilgan 2 174 nafar yoshdan 1 499 nafariya ijtimoiy-iqtisodiy yordamlar koʻrsatilib, ular daftardan chiqarildi.

Davlat rahbarining 2025-yil 14-fevraldagi “Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va bandligini taʼminlashga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-62-sonli qaroriga muvofiq Aloqabank bilan birgalikda “Biznesga birinchi qadam” va “Innovatsion yoshlar” loyihalari orqali 44 nafar yoshga 4,6 milliard soʻmdan ortiq imtiyozli kreditlar ajratildi. Umumiy olganda, turli mexanizmlar orqali 4 ming 289 nafar yoshning bandligi taʼminlandi.

MULOQOT – MUAMMOLARNING AMALIY YECHIMI

“Rahbar va yoshlar” uchrashuvlari Sirdaryo viloyatining barcha hududlarida har oyda oʻtkazilib, 7589 nafar yosh qamrab olindi. Uchrashuvlarda 383 ta muammo koʻtarilib, 297 tasi joyida hal etildi, qolganlari “yoʻl xaritasi” asosida yechilmoqda.

Yoshlarning iqtidor va isteʼdodini roʻyobga chiqarish uchun hududiy loyihalar samarali yoʻlga qoʻyilgan. Jumladan, “UzChess” orqali 18 240 nafar, “Mutolaa” orqali 63 688 nafar, “Ustoz AI” orqali 3629 nafar, “Qizlar akademiyasi” orqali 11 208 nafar yosh qamrab olindi. “Yoshlar turizmi” boʻyicha jami 20 ta tadbir amalga oshirilib, unda 367 nafar yosh qatnashdi.

Bundan tashqari, “Zakovat”, “Yosh kitobxon oila”, madaniy-maʼrifiy tadbirlar va sport musobaqalari orqali jami 41 708 nafar yoshning boʻsh vaqti mazmunli tashkil etildi.

Yozgi taʼtil vaqtida esa Sirdaryo va Zomin bolalar oromgohlarida hozirga qadar 470 nafar yosh dam olgan boʻlsa, yoz oxiriga qadar bu koʻrsatkich 2300 nafargacha yetkazilishi rejalashtirilgan.

Bugungi kunda Sirdaryo viloyatida yoshlar bilan ishlash borasida amalga oshirilayotgan har bir chora-tadbir, tashabbus va loyiha zaminida davlatimiz rahbarining “Yoshlar – buyuk kelajagimiz bunyodkorlari” degan gʻoyasi mujassam. Ularning intellektual, maʼnaviy va iqtisodiy salohiyatini roʻyobga chiqarish orqali nafaqat viloyat, balki butun mamlakat taraqqiyotiga poydevor yaratilmoqda.

“VAQT KAPSULASI” YOSHLARDAN 2075-YILGA XAT

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.



AVLODLAR OʻRTASIDAGI KOʻPRIK

Toshkentdagi “Yangi Oʻzbekiston” bogʻida joylashtirilgan “Vaqt kapsulasi” – oddiy metal idish emas, balki butun bir avlodning xotirasi, fikri, qadriyatlar va umidlarini oʻzida jamlagan madaniy-huquqiy hujjatdir. Kapsulaga yoshlardan kelajak avlodga yozilgan maktublar, oʻz davriga xos bilim resurslari, yoshlar loyihalari, innovatsion platformalar, eng koʻp oʻqilgan kitoblar va oʻrganilgan tillar haqida axborot joylashtirildi.

Loyihaning bosh maqsadi yoshlarning bugungi kundagi fikrlashi, maqsadlari, muammolari va orzularini 50 yildan keyingi avlodlarga yetkazish, yaʼni oʻz davrasi haqida guvohlik qoldirishdir. “Vaqt kapsulasi” 2075-yilda ochilishi rejalashtirilgan boʻlib, u orqali kelajak yoshlari 2025-yil yoshlari qanday hayot kechirganini, nima-ni qadrlaganini bevosita anglaydi.

STRATEGIK LOYIHALARNING TARKIBIY QISMI

“Vaqt kapsulasi” tashabbusi quyidagi uch asosiy yoʻnalishda oʻz ifodasini topdi:

Tarixiy ong va milliy xotirani mustahkamlash. Yoshlar oʻz fikrlarini kelajak avlodga yoʻllar ekan, ular tarixiy ong va maʼnaviy masʼuliyatni chuqur angladi. Bu tashabbus yoshlar orasida avlodlar davomiyligini, ruhiy merosni qadrlashni va oʻz davriga masʼuliyat hissini kuchaytirdi.

Axborot, raqamli madaniyat va maʼrifiy platformalarni hujjatlash. “Vaqt kapsulasi”ga “Ibrat farzandlari”, “Mutolaa”, “Ming kitob”, “UzChess” kabi loyihalarga oid materiallar joylashtirildi. Bu zamonaviy oʻquv vositalari, til oʻrganish imkoniyatlari va yoshlarning intellektual qiziqishlari haqida kelajak uchun muhim dalil sifatida xizmat qiladi.

Yoshlar ishtirokini mustahkamlash va kelajak haqida fikrlashni ragʻbatlantirish. Loyiha jarayonida yoshlar nafaqat ishtirokchi, balki tashabbuskor boʻldi. Ular oʻz ovozi yozma shaklda qoldirish orqali tarixiy muhr yaratdi. Bu orqali yoshlar oʻzlarini jamiyat hayotining faol subyekt sifatida his qildi, fuqarolik pozitsiyasi va kelajak haqida masʼuliyatli fikrlash madaniyati shakllandi.

“Vaqt kapsulasi” tashabbusi yoshlarning jamiyatdagi rolini eʼtirof etgan, ularning fikrini qadrlagan va uni abadiylashtirishga xizmat qilgan yirik maʼnaviy loyihadir. Tashabbus bugungi yoshlarning strategik fikrlashi, maʼnaviy dunyosi va ilmga chanqoqligini ifodalaydi.

Mohinur INAMOVA,
Strategik rejalashtirish,
istiqboli loyihalar va
metodologiya boʻlimi boshligʻi

XALQARO HAMKORLIK

MDH YOSHLAR ISHLARI BOʻYICHA KENGASHINING NAVBATDAGI YIGʻILISHI BOʻLIB OʻTDI

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.



Yigʻilishda Ozarbayjon, Belarus, Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Rossiya, Tojikiston va Oʻzbekiston delegatsiyalari, shuningdek, yoshlar bilan ishlovchi tayanch tashkilotlar hamda MDH Ijroiya qoʻmitasi vakillari ishtirok etdi.

Hamdoʻstlik davlatlarida yoshlar siyosati yoʻnalishida olib borilayotgan ishlar koʻrib chiqildi. Jumladan, Ozarbayjonda davlat yoshlar siyosatining amalga oshirilishi tahlil qilindi, 2024-yil “MDHda Volontyorlar harakati yili” yakunlari sarhisob qilindi. Shuningdek, 2025-yilda Ikkinchi jahon urushidagi gʻalabaning 80 yilligi munosabati bilan eʼlon qilingan “Natsizmga qarshi kurashda tinchlik va birlik yili” doirasida oʻtkaziladigan tadbirlarda yoshlarning faol ishtirokini taʼminlash masalasi muhokama qilindi. Ishtirokchilar Xalqaro yoshlar hamkorligi strategiyasi hamda 2025–2026-yillarga moʻljallangan Yoshlar volontyorlik harakatini rivojlantirish konsepsiyasi doirasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasining bajarilishi boʻyicha fikr almashdilar.

Yigʻilish yakunida bir qator muhim kelishuvlarga erishildi. Jumladan, 2026-yilda Qozogʻiston Respublikasida MDHning Birinchi volontyorlar forumini oʻtkazish taklifi maʼqullandi. Shuningdek, Belarusning Minsk shahri 2027-yilga, Qozogʻistonning Qaragʻanda shahri esa 2028-yilga “MDH yoshlar poytaxti” maqomiga nomzod sifatida ilgari surildi. Joriy yil oxirida Ostonada oʻtkazilishi rejalashtirilgan “MDH uchun 100 gʻoya” xalqaro loyihasining final bosqichiga tayyorgarlik masalalari koʻrib chiqildi.

Tadbir doirasida MDHga aʼzo davlatlarning yetakchi yoshlar tashkilotlari vakillari ishtirokida “MDH yoshlar tashkilotlari forumi” ham boʻlib oʻtdi. Forumda Yoshlar ishlari Toshkent viloyati boshqarmasi boshligʻi Nodir Xojiyev soʻzga chiqib, yoshlar duch kelayotgan umumiy muammolar va ularning yechimlari boʻyicha oʻz fikrlarini bildirdi.

Yigʻilish yakunida ishtirokchilar Gabala shahrining yoshlar uchun yaratilgan infratuzilmasi bilan yaqindan tanishdi.



2026-YILDA QOZOGʻISTON RESPUBLIKASIDA MDHNING BIRINCHI VOLONTYORLAR FORUMINI OʻTKAZISH TAKLIFI MAʼQULLANDI.

Kelajak bunyodkori

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Sogʻlom

Jamshidbek ISMOILOV**NAVOIY MAHALLASI
BALANSI:****Aholi soni:
2988 nafar;****Yoshlar soni:
791 nafar;****Ayol-qizlar:
380 nafar.****Qoraqalpogʻiston Respublikasi
Toʻrtkoʻl tumanidagi Navoiy
mahallasi yoshlar yetakchisi**

“SINOVLARGA TASLIM BOʻLMADIM”

Jamshidbek Ismoilov sogʻlom turmush tarziga amal qiladi, sport bilan muntazam shugʻullanadi. Sport yordamida yoshlarni jinoyatchilik, gijohvandlik va bekorchilikdan yiroq tutishga intiladi.

Jamshidbek faoliyatining dastlabki yilida futbolchilik bilan shugʻullangan – Qoraqalpogʻiston 2-ligasida oʻynovchi “Toʻrtkoʻl” klubi sharafigi himoya qilgan. Afsuski, jarohat tufayli futbolni tark etishga majbur boʻldi. Ammo uning gʻalabaga boʻlgan ishtiyoqi soʻnmadi.

– Futbol bolalikdagi orzum edi, – deydi Jamshidbek Ismoilov. – Har bir mashgʻulot, har bir oʻyinda bor kuchim bilan harakat qildim. Afsuski, hayotda hammasi rejadagidek ketavermaydi. Oyoqdan olgan ogʻir jarohatim futbolchilik faoliyatimni erta yakunlashga majbur qildi. Oʻsha paytlar ruhiy jihatdan ogʻir boʻlgan. Yillar davomida qurilgan maqsadlarim bir lahzada qulab tushgandek tuyulgan. Lekin men bu sinovga taslim boʻlmadim. Oʻzimni boshqa yoʻnalishda sinab koʻrishga qaror qildim va yoshlarga xizmat qilish yoʻlini tanladim. Bugun yoshlar yetakchisi sifatida mahalladagi har bir orzusi bor yoshga koʻmak berish, ularga imkoniyatlar eishigini ochish menga kuch va ilhom bagʻishlaydi. Shuni anglatdimki, hayotda yoʻqotish emas, undan keyin nima qilishning muhim. Men jamiyatga foydali boʻlish, boshqalarning orzulariga qanot boʻlish yoʻlini tanladim.

Qahramonimiz Oʻzbekiston futbol assotsiatsiyasining futbol murabbiylariga beriladigan “D” toifadagi litsenziyasiga ega. Bolalar va oʻsmirlar sport maktabida murabbiylik qilgan.

BIRLIK VA IQTIDOR MAYDONI

Yoshlar yetakchisining tashabbusi bilan mahallada havaskorlar oʻrtasida turli musobaqalar oʻtkazib kelinmoqda. Mini-futbol boʻyicha “Navoiy kubogi”, shaxmat-shashka turniri, armrestling va turnikda tortilish musobaqalari, qizlar oʻrtasida yugurish bellashuvlari va hokazo.

Bu tadbirlar nafaqat yoshlar oʻrtasida sogʻlom raqobat muhitini shakllantirdi, balki bir-birini ilgari tanimagan yigit-qizlarni doʻstlik, hamjihatlik ruhida birlashtirdi. Ayniqsa, har bir musobaqaning oʻz nomi, shiori va sovrin jamgʻarmasi boʻlgani, ishtirokchilarni ragʻbatlantirish tizimi ishlab chiqilgani, sport tadbirlarining yuqori saviyada, hakamlar ishtirokida oʻtkazilgani bu boradagi ishlarni professional darajaga koʻtardi.

Homiylar koʻmagida tumandagi 18 yoshdan 30 yoshgacha boʻlgan uyushmagan yoshlarni muntazam ravishda sportga jalb qilish maqsadida mini futbol yoʻnalishida “Toʻrtkoʻl tumani ligasi” tashkil etildi. Hozir ligada 14 ta jamoa ishtirok etmoqda va haftasiga ikki kun Liga oʻyinlari muntazam oʻtkazilmoqda. Gʻolib jamoa uchun qimmatbaho sovrinlar belgilangan.

		
“Yashil” toifa: 509 nafar	“Sariq” toifa: 266 nafar	“Qizil” toifa: 16 nafar

Mahalla drayveri:
ishlab chiqarish va
xizmat koʻrsatish.

INFRATUZILMA VA TASHABBUS

Jamshidbek mahallada sport maydonlarini taʼmirlash, yangi sport jihozlarini olib kelish, yoshlar uchun ochiq mashgʻulot zonalarini tashkil etish borasida ham tashabbus koʻrsatdi. Eski sport maydonchalari taʼmirlandi, yoshlar mini-futbol maydonini tozalab, chiziqlarni tortdi, toʻr oʻrnatdi, homiylar yordamida turnik va sport anjomlari olib kelindi, kechki paytlarda yoritish tizimi yoʻlga qoʻyildi.

Infratuzilmani yangilash orqali mahallada sport bilan shugʻullanuvchi yoshlar soni ortdi, jismoniy faollik kundalik hayot tarziga aylandi. Avval 50-60 nafar yosh sport bilan shugʻullangan boʻlsa, hozir ular soni 500 nafardan oshdi.

AVLOD – SOGʻLOM JAMIYATNI QURADI



NATIJA HARAKATDA!

Mahalla yoshlari sport musobaqalarida yuksak natijalarga erishmoqda. Xususan, qizlar jamoasi mini-futbol boʻyicha DXX kubogi tuman bosqichida ketma-ket uch mavsum 1-oʻrinni egallagan. Yigitlar jamoasi ham yuqori natijalarni qoʻlga kiritmoqda – ular oʻtgan mavsumda DXX kubogi doirasidagi tuman bosqichida futbol boʻyicha 2-oʻrin, mini futbol boʻyicha 3-oʻrinni egallagan.

“Besh tashabbus” olimpiadasining voleybol musobaqalarida ham mahalla yoshlari muvaffaqiyatli qatnashdi. Ichki ishlar vazirligi kubogining Qoraqalpogʻiston bosqichida 16–21 yosh toifasida 1-oʻrin, 22–30 yosh toifasida 3-oʻrinni egallab, respublikada ham faol ishtirok etdi.

YANGI BOSQICH SARI

Jamshidbek Ismoilovning fikricha, har qanday tashabbus davomli boʻlishi, tizimli yondashuvga asoslanishi zarur. U kelgusida amalga oshirishni rejalashtirayotgan yoʻnalishlar ham barqarorlik va natijadorlikni taʼminlashga xizmat qiladi. Quyida uning kelajakdagi rejalari toʻxtalamiz.

“Toʻrtkoʻl tumani ligasi”ni rasmiy darajaga koʻtarish. Bu borada u Oʻzbekiston Professional futbol ligasi hamda Oʻzbekiston futbol assotsiatsiyasi bilan hamkorlik oʻrnatish ustida ishlamoqda. Ligaga qatnashayotgan havaskor jamoalarning malakasini oshirish, hakamlar faoliyatini tizimlashtirish va sovrin jamgʻarmasini kengaytirish rejalashtirilgan. Natijada bu loyiha butun tumandagi uyushmagan yoshlarni sport orqali ijtimoiy hayotga jalb etishda samarali vositaga aylanadi.

Sport murabbiyligi va volontyorlik maktabini tashkil etish. Kelgusida sport murabbiylari va volontyorlar maktabini tashkil etish ham rejalashtirilgan. Bu orqali yoshlarga nafaqat sport bilan shugʻullanish, balki murabbiy sifatida tajriba oʻrtirish imkoniyati yaratiladi. Ayniqsa, murabbiylikka qiziqqan yoshlar uchun futbol assotsiatsiyasi bilan hamkorlikda “D” va “C” toifadagi litsenziyalari boʻyicha oʻquv kurslari yoʻlga qoʻyilishi koʻzda tutilgan.

“Sport orqali ijtimoiy uygʻonish” tashabbusi. Jamshidbek jinoyatchilik, gijohvandlik va bekorchilikka qarshi kurashishda sportning kuchli vosita ekanini chuqur anglab yetgan. Shu bois, “sariq” va “qizil” toifaga kiruvchi yoshlar uchun sport orqali ijtimoiy reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqishni oʻylamoqda.

Tashabbuslarni raqamlashtirish va monitoring qilish. Jamshidbek Ismoilov har bir tashabbusda ochiqlik va hisobdorlik tamoyiliga amal qiladi. Yaqin kelajakda “Navoiy sport harakati” nomli telegram-bot yoki mobil ilova yaratish rejalashtirilgan. Platforma orqali barcha sport tadbirlari, jamoalar, natijalar, mashgʻulotlar jadvali va roʻyxatdan oʻtish tizimi markazlashtiriladi.

Eng muhim strategik reja – oʻz tajribasini tuman va Qoraqalpogʻiston miqyosida ommalashtirish. Bu borada u “Sport yetakchilari maktabi”ni tashkil etish, oʻz tajribasi asosida metodik qoʻllanma tayyorlash va boshqa yetakchilarga amaliy yordam berishni rejalashtirgan.

Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,
“Yoshlar ovozi” muxbiri

aslida ISSIQROQMI?

Shahobiddin LUQMON
tayyorladi.Foto:
Xolida MUSULMON

DUNYO TAJRIBASI

Rivojlangan mamlakatlarda havo haroratiga faqat ob-havo maʼlumoti sifatida qaramaydi: u koʻplab kasblar uchun ish boshlash yoki toʻxtatish mezonini boʻlib xizmat qiladi. Ayniqsa qurilish, yoʻlsozlik, qishloq xoʻjaligi, konchilik kabi ochiq havoda olib boriladigan faoliyatlarda ish sharoiti uchun harorat meʼyorlari aniq belgilangan. Koʻplab davlatlarda yuqori haroratda ishlash masalasi mehnat qonunchiligida alohida tartibga solingan va nazorat qilinadi.

Masalan, Germaniyada ochiq havodagi ish joyida harorat 35 darajadan oshsa (ofis va yopiq joylarda 26 daraja), ish beruvchi ishchilarni maxsus sovitish vositalari yoki dam olish sharoitlari bilan taʼminlashi shart. Agar bunday imkoniyat boʻlmasa, ish vaqtincha toʻxtatiladi. Fransiya esa 33 daraja harorattan boshlab ishchilarga har 20 daqiqada suv ichish va soyada dam olish tavsiya etiladi. Ayrim korxonalarda ish vaqti jazirama kunlarda avtomatik tarzda qisqartiriladi.

AQShda OSHA (Mehnat xavfsizligi va salomatligi boshqarmasi) 32-35 daraja oraligʻida ishchilarning sogʻligʻini kuza-tish, ularni doimiy suv bilan taʼminlash, dam olish intervallarini oshirish kabi choralarni qatʼiy tavsiya qiladi. Agar harorat 39 darajadan yuqori boʻlsa, ochiq havodagi jismoniy ishlar xavfli deb topiladi va vaqtincha toʻxtatiladi. Ayrim shtatlarda bunday hollarda ishchilarga qoʻshimcha haq toʻlanadi yoki ish grafigi sutkaning salqin soatlari-ga koʻchiriladi.

Yaponiyada esa “issiqlik stressi indeksi” (WBGT) asosida maxsus tizim ishlab chiqilgan. Bu indeks faqat havo haroratini emas, balki namlik, shamol va quyosh nurlanishini ham hisobga oladi. Agar WBGT 31 birlikdan oshsa, jismoniy ishlar toʻliq toʻxtatiladi. Bundan tashqari, yirik kompaniyalarda haroratga moslashtirilgan kiyim-bosh, ventilyatsiya va mobil soyabonlar kabi muhofaza vositalari majburiy hisoblanadi.

Bu kabi tajribalar va choralar shuni koʻrsatadiki, butun dunyoda issiqlik xavfli omil sifatida qabul qilinadi, u befarqlik bilan qaraladigan raqam emas. Tabiiyki, bunday issiq haroratda ishlash inson hayoti va salomatligi uchun tahdididir. Aynan shuning uchun koʻplab mamlakatlarda mehnatni muhofaza qilish tizimi ekstremal ob-havo sharoitida alohida mexanizmlar bilan kuchaytirilgan.

Havo harorati baland boʻlsa, mehnat jarayoni oddiy ish emas, xavf ostidagi faoliyatga aylanadi. Jahon Sogʻliqni Saqlash Tashkiloti (JSSIT) hamda boshqa xalqaro tashkilotlar bu borada aniq va qatʼiy tavsiyalar ishlab chiqqan. Unga koʻra, yuqori haroratda jismoniy mehnat yurak-qon tomir tizimiga ortiqcha yuklama beradi, organizmda suv tanqisligiga olib keladi va ogʻir hollarda issiq urishi yoki hatto oʻlimga sabab boʻlishi mumkin. Inson organizmi jismoniy ish paytida tana harorati 38 darajadan oshganda xavfli chegaraga yaqinlashadi. Agar chuqur tana harorati 39 darajani tashkil etsa, darhol ishini toʻxtatish zarur.

Koʻplab mamlakatlarda issiqlik xavfini baholashda issiqlik stressi indeksi (WBGT) qoʻllaniladi. Bu indeks asosida darajasi baholanadi va ishga nisbatan chora-tadbirlar belgilanadi. Shuningdek, Xalqaro Sogʻliqni Saqlash va Mehnat Xavfsizligi tashkilotlari bir qator chora-tadbirlarni majburiy deb hisoblaydi:

- ishchilarni soya yoki ventilyatsiyalangan joyda ishlatish;
- har 15-30 daqiqada dam olish vaqtlarini belgilash;
- doimiy ichimlik suvi bilan taʼminlash;
- yangi ishchilarga organizmni issiqqa moslashtirish uchun kamida 7-14 kunlik “aklimatizatsiya” davrini belgilash;
- jamoa boʻlib ishlaganda, ishchilar bir-birining holatini nazorat qilishi (“buddy system”).

JSSIT va Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) birgalikda ishlab chiqqan “Beat the Heat” tashabbusi dunyo davlatlariga jazirama ob-havo sharoitida ishchilarning sogʻligʻi va xavfsizligini taʼminlash boʻyicha tavsiyalar beradi. Bu tavsiyalar asosida harorat h

FOMO: XABARSIZLIK XAVOTIRI

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.



Kechki soat ikki, ammo siz hali uyquga ketganingiz yo'q, ijtimoiy tarmoqlardagi o'zingizga yoqqan blogerlarning hayotini kuza- tib, videolar ko'rib yotib- siz. Shu payt xuddi sizdek behalovat do'stingiz "Gu- ruhga qara, shuncha gapdan qolib ketding", deb yozdi, buyuk bir kashfi- yotdan bexabar qolgan insondek gu- ruhga kirsangiz, minglab o'qilmagan xabarlar. Bu payt vahima xuruji so- dir bo'ladi: "Endi nima deb suhbat- ga qo'shilsam ekan, shunchasini o'qib chiqqunimcha suhbat tugab ketadi- ku" deb boshingiz qotadi. Tanishmi bu holat?

FOMO atamasini birinchi mar- ta 2004-yilda amerikalik shifokor Dan Herman ishlatgan, biroq bu tushun- cha keng ommaga Patrick J. McGin- nisning 2013-yildagi "Harvard Busi- ness Review" dagi maqolasidan so'ng tanila boshladi. U FOMOni "doimiy ravishda boshqa joyda, boshqa odam- larda yoki boshqa voqeilikda nimadir yaxshiroq bo'lishi mumkinligi haqida- gi xavotir" deb ta'riflagan.

Bugun FOMO ko'pincha ijtimoiy tarmoqlar bilan bog'lanadi. Insta- gramda do'stingiz dam olish yoki yan- gi marralarni zabt etish maqsadi- da xorij safarida, X tarmog'ida ham- kasbingiz yangi loyiha boshlagan, Telegramda kimdir nimadir qilyapti. Siz esa bu holatda telefonni o'chirib qo'yishga jur'at eta olmaysiz, ehtimol, shu safar aynan nimadandir qolib ke- tishingiz mumkin.

Psixologik tadqiqotlarda FOMO asosan ijtimoiy taqqoslash nazariya- si (Social Comparison Theory) bilan bog'liq. Bu nazariyani 1954-yilda psi- xolog Leon Festinger ishlab chiqqan bo'lib, odamlar o'zlarining ijtimoiy maqomini boshqalarnikiga qarab ba- holashga moyil ekanini ko'rsatgan. Bu holat ba'zida ijobiy va salbiy oqibatlar- ga olib kelgan.

2020-yilda "Computers in Human Behavior" jurnalida chop etilgan tad- qiqotda shifokor Endryu K. Przybyski shunday deydi: "FOMO shunchaki yo- qimsiz hissiyot emas, u odamni doimiy

ijtimoiy tarmoqda qolishga majbur qiluvchi mexanizmdir. Bu esa inson- ning hayotiy ehtiyojlari va qadriyat- larini ikkinchi o'ringa tushiradi".

Magnit-rezonans tomografiya (MRT) orqali o'tkazilgan tajribalarda FOMoga yo'liqqan insonlarda dopa- min ishlab chiqarish ortishi aniqlan- gan. Dopamin miyada va tanada ta- biy ravishda ishlab chiqariladigan gormon va aynan rag'bat hissi bilan bog'liq neyrotransmitter hisobлана- di. Odam FOMO orqali yangi ma'lu- motga ega bo'lishda o'ziga "psixologik rag'bat" beradi, lekin bu vaqtincha va keyin asosan ichki notinchlik bilan al- mashinadi. 2023-yil hisobotiga ko'ra, 16-29 yosh oraliq'idagi foydalanuv- chilarning 69 foizi ijtimoiy tarmoq- larni "biror narsani o'tkazib yubor- maslik, doimiy ravishda e'tibor mar- kazida qolish" uchun tez-tez tekshira- di. FOMO nafaqat ruhiy holatga, balki ijtimoiy hayotga, mahsuldorlikka, hattoki inson o'zini qanday angatishiga ham bevo- si ta'sir ko'rsatmoq- da. Esseks universi- teti tadqiqotida bir haftalik "ijtimoiy tarmoq detoksi"- da (ijtimoiy tar- moqdan tanaffus) qatnashgan tala- balarning 73 foizi- ning ruhiy holatida yaxshilanish sezilgan.

Biz ham kichik tad- qiqot sifatida kishilar bilan suhbatlashib ko'rdik, Muharramoy Egamberganova, 20 yoshda, Tosh- kentda yashaydi. U deyarli har kuni TikTok va Instagram kabi ijtimoiy tar- moqlarda kamida 3-4 soat vaqt o'tka- zadi. U bilan suhbatlashganimizda shunday dedi:

– Do'stlarim har kuni yangi post- lar, "story"lar joylashadi. Kimdir Dubayda, Misrda, kimdir yangi tele- fon olgan, sovg'a qilingan qimmatba- ho narsalar, taqinchoqlarni sur'atga olib ulashadi. Men ular joylaganlar- ini ko'rmasam, go'yoki ular bilan mu- loqotda o'zimni noqulay, e'tibordan

chetda his qilaman... Shu odat tufay- li o'qishimga ham diqqatimni jamlay olmay qolaman.

Yolg'iz Muharramoy emas, ming- lab, millionlab yoshlar shu bosim os- tida yashayapti va ular bunga o'r- ganib qolgan, lekin zararini anglamaydi. Nafaqat yoshlar orasida, kattalarning ish faoliyatida ham "karyera FOMosi" uchrab turadi.

G'olib Xudoyberdiyev, 45 yoshli dasturchi, o'z sohasida muvaffaqiyat- ga erishgan, bir necha loyihalar rah- bari hamda asoschisi, lekin har sa- far "Linkedln"da boshqalarning yan- gi lavozimlari yoki kurslar tugatilgani haqida post ko'rsa, o'zini ortda qol- gandek his qiladi:

– Men o'z sohamning ilg'or muta- xassisi edim, ammo hozirgi kunda yangi dasturlar, texnologiyalar rivoj- lanib ketmoqda va har kuni kimdir yangi bosqichga o'tganini ko'rsam, birdan shubhalanaman: "balki, men orqada qolgandirman?"

Bu esa professional FOMO, raqo- batga asoslangan, o'zgarishlar or- tidan quvishga majbur qiluvchi his. Bu haqda psixolog Susan Albers shun- day deydi: "FOMO insonni hozirgi ha- yotidan norozi qiladi, uni mavjud real hayotdan olib chiqib, tasavvuriy yax- shiroq hayotga bog'lab qo'yadi".

FOMODAN JOMOGA

Harvard Biznes maktabining 2016-yilgi tadqiqoti shuni ko'rsatdi- ki, odamlar o'zlarini doim boshqa- lar bilan solishtirganda baxt daraja- si keskin pasayadi. Har safar shunday holatni boshingizdan o'tkazsangiz, o'zingizning buguningizni kecha- gi holatingiz bilan solishtiring. Bu esa o'zgarishni anglash rag'batini oshiradi. Penn State universitetining tre- ningida haftasiga 30 daqiqagacha ijti- moi tarmoqdan foydalanish FOMO va depressiyani sezilarli kamaytirishi aniqlangan. Bu tajribani uy sharoiti- da ham qo'llasa bo'ladi. Buning uchun mobil quрилmangizda "Do Not Disturb" (DND) rejimidan foydalaning, shun- da ko'p foydalaniladigan ilovalaringiz sizga har xil xabar va bildirishnomalar yuborishdan to'xtaydi. Kundalik foyda- lanish vaqtini kamaytirish ham sa- mara beradi, masalan, 20-30 daqiqagacha.

2021-yilda London universitetida mu- taxassislar yaxshi odatlarni rivojlan- tirish maqsadida o'rtacha 66 kun- lik sog'lom psi- xologik mashg'ulot o'tkazdi. Bu vaqt da- vomida bir inson bu- tunlay boshqa bir in- songa aylandi, ya'ni ijobiy tomonga. Kuniga 10 betdan ki- tob o'qishni boshlaydi, haftalik maqsad- larni yozib borish va unga erishish, shax- siy fikrlar va hayotiy voqealarni yaqin in- sonlar bilan bo'lishishni o'rganadi. Aso- san endi ular FOMO (fear of missing out) emas, JOMO (joy of missing out) bilan yashashni boshlaydi. JOMO atama- si FOMO tushunchasiga teskari qo'yila- di: hayotda sodir bo'layotgan ham- ma narsada qatnashishga hojat yo'qli- gini tushunib yetish va o'z hayotidan zavq olish.

Guljahan XO'JAYEVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi



Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

– Bolaligimda tasviriy san'at va chizmachilik fan- laridan doim a'lo baho olar- dim. Men chizgan rasmlarni sinfdoshlarim va o'qituvchi- larim hayrat bilan tomosha qilardi. Shundan keyin ta'til vaqtida bolalar bog'chasi- ning devorlariga rasm chi- zishni boshlab, o'z daro- madimga ega bo'lganman. Bu kabi vaziyat, menimcha, har qanday insonni qiziqtir- may qolmaydi. Ayniqsa, chi- royli rasmlarga to'la devorni ko'rgan bolalarning quvonchi hali ham ko'z oldimda.

QOBILIYATDAN daromad KELADI

Shahriyot maktabni tomomlagach, qay- si universitet un- ga mos kelishini bi- lish uchun universitetlar bilan tanishib chiqqan. Aytishicha, o'sha payt Tosh- kent arxitektura-qurilish universiteti- ga kirish uchun amaliy imtihonlar olib tashlangan. Shu sababdan Toshkent shahridagi Kimyo xalqaro universiteti- ga topshirgan. Chunki e'tiborni faqat amaliy imtihonga qaratishga harakat qilgan. Bu universitetni tanlashiga ya- na bir sabab Janubiy Koreya universi- teti bilan talaba almashinuv shartno- masi bor ekanligi. Undagi chetda o'qish istagi shu orqali amalga oshdi.

– Toshkentdagi Kimyo xalqaro uni- versitetining 2 yil Toshkentda, 2 yil Ko- reyadagi Gachon universitetida o'qi- tish haqidagi shartnomasi bor. Ma- na shu imkoniyatdan foydalanib, Ko- reya universiteti uchun hujjat yig'ishga kirishganman. Hujjatlarni topshirish- da eng muhim narsa — ularni vaqti- da va to'g'ri tayyorlash. Men ham shu xatoni qilganman. Hujjatlarim erta tayyor bo'lgan, lekin topshirish vaqti- ni o'tkazib yuborganman. Keyin qay- ta hujjat tayyorlashga majbur bo'ldim.

Janubiy Koreyaga o'qishga kelgach, Gachon universitetining talabalar uchun yaratgan sharoitlari Shahri- yorni hayron qoldirgan. Universitet hududi juda katta, ikkita katta kutub- xona, sport zallari va boshqa ko'plab imkoniyatlar mavjudligi talabalarga har taraflama qulaylik yaratadi. Bun- dan tashqari, qat'iy forma joriy etilma- ganligi, hatto shippakda darsga keladi- gan talabalarning borligi qahramoni- mizning e'tiborini tortmay qo'yamgan.

– O'quv binosi 24 soat ochiq bo'lib, istalgan paytda kirib, dars tayyor- lash yoki boshqa mashg'ulotlar bilan shug'ullanish mumkin. Bu jihatlar Toshkentdagi KIUT bilan solishtiril- ganda Gachon universitetida ancha farq qiladi. Chunki Toshkentda o'qish ertalabdan kechgacha bo'lgan va boshqa payt o'quv binosiga hech kim kiritilmagan. Dars paytlari ham ID kartasi yo'q yoki olib kelishni unutgan talabalar o'qishga kiritilmas edi.

Qahramonimizning aytishicha, universitet maydoni juda kattaligi hisobiga yotoqxonadan o'quv binosi- gacha talabalarni eltib qo'yish uchun kichik avtobuslar harakatlanadi.

– Menga eng yoqqan jihati esa Gachon universiteti talabalarga GPA bali va darsda qatnashish darajasi- ga ko'ra grant ajratadi. Buning uchun ham alohida ariza berish shart emas. Toshkentda esa grant yutishning o'zi- ga yarasha mashaqqatlari bo'lgan. Ta- laba a'lo bahoga o'qisa-yu, universitet- ning tashkiliy ishlarida faol qatnash- masa, grantdan umudini uzishi mum- kin.

Dars jarayoni O'zbekistondagi ta'limga o'xshash. Professorlar dars- ga puxta tayyorlanib keladi. Shu bi- lan birga, xuddi boshqa universitet- lardagidek davomat masalasiga alohi- da e'tibor qaratiladi. Davomat past bo'lsa, imtihonlardan o'tish qiyin ke- chadi. Shahriyotning aytishicha, u Ko- reyada ta'lim olish jarayonida hozir- cha kamchiliklarni ko'rmagan va bu yerda o'qishni boshqa tengdoshlariga bemaol tavsiya qila oladi.

Sarvinov KOMILOVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

YOSHILAR YETAKCHILARI XITOIYDA XALQARO TAJRIBA VA AMALIYOT SARI MUHIM QADAM



Yoshlar ishlari agentligi tomonidan yoshlar bilan ishlash tizimini rivoj- lantirish, mahallalardagi yetakchilarning salohiyatini oshirish va za- monaviy davlat xizmatchilarning xorijiy tajribasini o'rganish maqsa- dida maxsus delegatsiya Xitoy Xalq Respublikasiga bordi.

Delegatsiya tarkibiga tuman va shahar yoshlar ishlari bo'limlari rahbarlari ham- da faol yoshlar yetakchilari kiritilgan. Safar doirasida Guanchjou shahrida "O'zbe- kiston–Xitoy" qo'shma ta'lim dasturining rasmiy ochilish mar